

## DOIRA CHOLG‘USIDA IJROCHILIK MAHORATINI OSHIRISHNING AMALIY USULLARI



**Zakirov Nodir Baxtiyarovich**

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy  
musiqa san’ati instituti

“Maqom cholg‘u ijrochiligi” kafedrasasi o‘qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19381773>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada doira cholg‘usida ijrochilik mahoratini oshirishning amaliy usullari yoritilgan. Unda doiraning tuzilishi, akustik xususiyatlari, tovush hosil qilish mexanizmi hamda ijro jarayonida qo‘l texnikasi va ritmik hisni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalq musiqa amaliyotida qo‘llaniladigan doira usullarining tasnifi — oddiy, maqsadli va murakkab usullar ilmiy asosda izohlanadi. Maqolada doira ijrochiligida zarb turlarini o‘zlashtirish, tezlik va chidamlilikni rivojlantirish, ansambl va yakkaxon ijro ko‘nikmalarini shakllantirishning muhim jihatlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** doira cholg‘usi, ijrochilik mahorati, ritmik usullar, xalq musiqasi, ansambl, ritm.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются практические методы повышения исполнительского мастерства на дойре. В ней анализируются структура круга, акустические свойства, механизм звукообразования, а также вопросы формирования техники руки и ритмического чувства в процессе исполнения. Также на научной основе объясняется классификация приемов дойры, используемых в народной музыкальной практике - простые, целенаправленные и сложные приемы. В статье раскрываются важные аспекты освоения видов ударов в исполнительстве на дойре, развития скорости и выносливости, формирования навыков ансамблевого и сольного исполнения.

**Ключевые слова:** дойра, исполнительское мастерство, ритмические приемы, народная музыка, ансамбль, ритм.

**Abstract.** This article discusses practical methods for improving performance skills on the doira. It analyzes the structure of the circle, its acoustic properties, the mechanism of sound production, as well as the issues of forming hand technique and rhythmic feeling during the performance process. Also, the classification of doira techniques used in folk musical practice - simple, purposeful, and complex techniques - is explained on a scientific basis. The article reveals important aspects of mastering the types of beats in doira performance, developing speed and endurance, and forming ensemble and solo performance skills.

**Keywords:** doira, performance skills, rhythmic techniques, folk music, ensemble, rhythm.

O‘zbek milliy musiqa san’atida doira cholg‘usi muhim o‘rin egallaydi. U nafaqat ritmni belgilovchi asosiy cholg‘u, balki ijrochining mahorati, his-tuyg‘usi va san’atkorlik darajasini namoyon etuvchi vosita hisoblanadi. Doira ijrochiligida yuqori natijalarga erishish uchun muntazam mashq, to‘g‘ri metodika va amaliy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Doiraning asosiy qismi — gardish bo‘lib, uning sifati cholg‘uning ovoz xususiyatlarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. An’anaviy ravishda gardish zang daraxtidan yasalgan bo‘lib, ushbu yog‘och turi o‘zining mustahkamligi, elastikligi va ayni paytda jarangdor sado berishi bilan ajralib turadi. Zang daraxtining kamyoblashuvi natijasida keyingi davrlarda tut, o‘rik, yong‘oq kabi mahalliy daraxt turlaridan ham keng foydalanila boshlandi. Har bir yog‘och turi o‘zining akustik xususiyatlariga ega bo‘lib, bu esa doira sadolarining rang-barangligini ta‘minlaydi.

Zamonaviy davrda esa cholg‘u yasash ustalari tomonidan akatsiya daraxtidan ham gardishlar tayyorlanmoqda. Akatsiya yog‘ochi nisbatan yengil, mustahkam va chidamli bo‘lgani sababli u doira ishlab chiqarishda qulay material sifatida e‘tirof etilmoqda. Havaskor ijrochilar uchun esa ko‘proq tol daraxtidan yasalgan gardishlar qo‘llaniladi. Tol yog‘ochining yumshoqligi va ishlov berishning osonligi uni boshlang‘ich bosqichdagi ijrochilar uchun maqbul qiladi.

Doira cholg‘usidan baland, jarangdor va sifatli tovush chiqishi ijrochilik mahoratining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bunday tovushni ta‘minlash, avvalo, doira terisining to‘g‘ri taranglashtirilishi va uning optimal holatga keltirilishiga bog‘liq. Shu maqsadda qadimdan doira quyosh nuri ostida, ayrim hollarda esa olov haroratida ehtiyotkorlik bilan qizdiriladi. Bu jarayon terining zichlashuviga, elastikligining ortishiga va natijada tovushning tiniq hamda jarangdor chiqishiga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda esa ushbu an’anaviy usullar bilan bir qatorda elektr isitgichlar va maxsus qurilmalar yordamida doira terisini bir maromda qizdirish amaliyoti keng qo‘llaniladi. Bu esa tovush sifatining barqarorligini ta‘minlash imkonini beradi.

Doirada tovush hosil qilish jarayoni murakkab va nozik koordinatsiyani talab etadi. Ijro davomida asosan o‘ng va chap qo‘llarning to‘rttadan barmoqlari faol ishtirok etadi. Har bir barmoq o‘ziga xos zarb funksiyasini bajarib, umumiy ritmik tuzilmani boyitadi. Bosh barmoqlar esa ko‘proq tayanch vazifasini o‘tab, cholg‘uni mahkam ushlab turish, uning barqarorligini saqlash hamda zarb kuchini nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shu tariqa qo‘l barmoqlarining uyg‘un harakati natijasida turli tembr va dinamik tushlarga ega tovushlar hosil bo‘ladi.

Doiraning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri — uning gardish qismiga o‘rnatilgan metall halqalardir. Ushbu halqalar zarb jarayonida tebranib, asosiy ritmik tovushga qo‘shimcha jarang va aks-sado bag‘ishlaydi. Natijada zarb va halqa tovushlari o‘zaro uyg‘unlashib, murakkab akustik qatlamni hosil qiladi. Bu esa doira cholg‘usining jozibadorligini oshirib, ijroga o‘ziga xos betakror ohangdorlik va rang-baranglik baxsh etadi.

Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, doira tovushi membranofon cholg‘ular guruhiga xos bo‘lib, unda asosiy tovush manbai sifatida tarang tortilgan terining tebranishi xizmat qiladi. Teri yuzasiga berilgan zarb kinetik energiyani tebranish energiyasiga aylantiradi, bu tebranish esa havoda tovush to‘lqinlari ko‘rinishida tarqaladi. Halqalarning qo‘shimcha rezonansi esa tovushning boyligi va davomiyligini oshiradi.

Doira ijrochiligi o‘zining boy ritmik imkoniyatlari va usullarining rang-barangligi bilan milliy musiqa san’atida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu cholg‘u nafaqat ritmni belgilovchi vosita, balki musiqiy ifodaning muhim komponenti sifatida ham namoyon bo‘ladi. Doiraning ritm hosil qilishdagi elastikligi, zarb nozikliklari hamda ijro texnikasining xilma-xilligi tinglovchida chuqur estetik zavq va o‘ziga xos musiqiy taassurot uyg‘otadi. Har bir zarb, har bir ohang bo‘lagi ijrochining ichki hissiyoti va ijodiy yondashuvini aks ettiradi.

Doira ijrochiligida ritmik shakllarning boyligi ayniqsa ahamiyatlidir. Oddiy usullardan tortib murakkab, sinkopali ritmik tuzilmalargacha bo‘lgan keng diapazon ijrochidan yuqori darajadagi texnik tayyorgarlik va musiqiy tafakkurni talab qiladi. Zarblarning dinamik o‘zgarishlari, tezlik va kuchning uyg‘unligi orqali ijro jarayonida turli kayfiyatlar — jo‘shqinlik,

tantanavorlik yoki sokinlik ifodalanadi. Shu jihatdan doira ijrochiligi nafaqat texnik, balki badiiy tafakkur mahsuli sifatida ham qadrlanadi.

Ayniqsa, marosim va udumlarda doiraning tutgan o'rnini nihoyatda muhimdir. U xalq hayotining ajralmas qismi sifatida to'y-tomoshalar, bayramlar va turli an'anaviy marosimlarda faol qo'llaniladi. Doira bu jarayonlarda nafaqat ritmik asos yaratadi, balki umumiy musiqiy muhitni jonlantirib, ishtirokchilarda ruhiy ko'tarinkilik va birlik hissini uyg'otadi. Ayniqsa, karnay-surnay ansamblida doira asosiy ritmik tayanch vazifasini bajarib, barcha cholg'ular ijrosini yagona ritmik tizimga birlashtiradi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida doira usullarining ko'plab namunalari vujudga kelib, ular har bir davrning ijtimoiy-madaniy muhiti, estetik qarashlari va san'at tamoyillariga mos ravishda sayqallanib, takomillashib borgan. Dastlab oddiy ritmik shakllar ko'rinishida shakllangan usullar vaqt o'tishi bilan murakkablashib, o'z ichiga turli zarb kombinatsiyalari, sinkopali ritmlar va dinamik o'zgarishlarni qamrab olib boshladi. Har bir yangi avlod ijrochilari esa ushbu an'anaviy usullarga o'z dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri va individual ijro uslubini singdirib, ularni yangi badiiy bosqichga olib chiqdi.

Natijada doira ijrochiligida o'ziga xos, rang-barang, murakkab va yuqori mahorat talab qiluvchi usullar majmuasi shakllandi. Bu usullar nafaqat texnik jihatdan mukammallikni, balki ijrochidan chuqur ritmik his, tezkor fikrlash va estetik sezgirlikni ham talab etadi. Har bir usulning o'ziga xos ritmik formulasi, zarb ketma-ketligi va ijro dinamikasi mavjud bo'lib, ular umumiy musiqiy tuzilmaning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur jarayon doira san'atining faqatgina marosimiy yoki hamroh cholg'u sifatidagi funksiyasi bilan cheklanib qolmaganini, balki uning mustaqil ijod manbai sifatida ham yuksalib borayotganini yaqqol ko'rsatadi. Ayniqsa, yakkaxon ijrochilikda doira imkoniyatlarining kengayishi, improvizatsion usullarning rivojlanishi ushbu cholg'uning san'at darajasini yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda doira ijrochisi nafaqat ritm beruvchi, balki musiqiy asarning badiiy mazmunini ifodalovchi ijodkor sifatida ham e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda doiraning ritmik imkoniyatlari, ijrochilik texnikasi va usullar tizimi nafaqat amaliy ijrochilik jarayonida, balki ilmiy tadqiqotlarda ham alohida qiziqish uyg'otmoqda. Musiqashunos olimlar tomonidan doira usullarining strukturasi, ularning ritmik formulalari, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda hududiy xususiyatlari chuqur o'rganilmoqda. Bu esa milliy cholg'u ijrochiligini ilmiy asosda rivojlantirish, uni tizimlashtirish va kelajak avlodga mukammal yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq musiqasi ijrochilik amaliyotida qo'llaniluvchi doira usullari o'zining vazifasi, tuzilishi va ijro murakkabligiga ko'ra muayyan tizim asosida tasniflanadi. Ushbu tasnif doira ijrochiligining ichki qonuniyatlarini anglash, uni o'rganish va amaliyotda samarali qo'llashda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan usullarni quyidagi asosiy guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir:

– *Oddiy usullar*: ijro jihatidan unchalik murakkab bo'lmagan, ritmik tuzilishi sodda va takrorlanuvchi zarb ketma-ketliklariga asoslangan usullardir. Ular asosan an'anaviy marosimlarda, xalq qo'shiqlari, lapar va o'yin-kulgi jarayonlarida keng qo'llaniladi. Oddiy usullar ijrochidan murakkab texnik tayyorgarlikni talab qilmaydi, biroq ularning to'g'ri va aniq ijrosi ritmik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur usullar xalq musiqasining tabiiyligi va sodda go'zalligini aks ettirib, tinglovchida samimiylik va yaqinlik hissini uyg'otadi.

– *Maqsadli usullar*: muayyan funksional vazifani bajarishga qaratilgan bo'lib, ular orqali ommani jalb etish, yig'ish, diqqatni muayyan hodisa yoki jarayonga qaratish kabi ma'nolar ifodalanadi. Bunday usullar ko'pincha marosimiy va tantanavor vaziyatlarda, xususan, sayil, to'y,

xalq bayramlari va ommaviy tadbirlarda qo‘llaniladi. Ularning ritmik tuzilishi aniq, jarangdor va ta’sirchan bo‘lib, kuchli dinamik urg‘ular orqali tinglovchi e’tiborini tortadi. Shu sababli maqsadli usullar kommunikativ va signal beruvchi musiqiy vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

– *Murakkab usullar*: xalq mumtoz musiqa ijodiyotida shakllangan, ritmik jihatdan murakkab va ko‘p qatlamli tuzilishga ega bo‘lgan usullardir. Ular yuqori darajadagi ijrochilik mahoratini, nozik ritmik hisni va mukammal texnik tayyorgarlikni talab etadi. Murakkab usullarda turli zarb kombinatsiyalari, sinkopalar, o‘zgaruvchan temp va dinamik tuslar uyg‘unlashib, boy badiiy ifoda vositalarini yuzaga keltiradi. Bunday usullar ko‘pincha maqom, katta ashula va boshqa mumtoz janrlarda qo‘llanilib, musiqiy asarning ichki drammatizmini va badiiy chuqurligini ochib berishga xizmat qiladi.

Mazkur tasnif doira ijrochiligidagi usullar tizimining rang-barangligi va rivojlanganligini ko‘rsatadi. Har bir guruh o‘ziga xos funksional vazifaga ega bo‘lib, ular umumiy musiqiy jarayonda o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Shu bois doira ijrochisi ushbu usullarni nafaqat texnik jihatdan, balki ularning badiiy-estetik mazmunini anglagan holda o‘zlashtirishi zarur.

Doira cholg‘usida ijrochilik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish ko‘p qirrali, murakkab hamda uzluksiz jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon doiraning tuzilishi, uning akustik imkoniyatlari, ijro texnikasi va boy ritmik usullar tizimini chuqur o‘zlashtirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan oddiy, maqsadli va murakkab usullar doira ijrochiligining nazariy va amaliy asoslarini tashkil etib, milliy musiqa san’atining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Doira ijrochiligida yuqori natijalarga erishish uchun qo‘l texnikasining mukammalligi, ritmni nozik his etish, zarb turlarini puxta egallash hamda ijro davomida dinamik va tembr rang-barangligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, doiraning marosimiy, ansambl va yakkaxon ijrochilikdagi o‘rni uning nafaqat hamroh cholg‘u, balki mustaqil badiiy ifoda vositasi sifatida ham rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi.

Zamonaviy davrda doira san’ati nafaqat amaliy ijrochilikda, balki ilmiy tadqiqotlarda ham keng o‘rganilmoqda. Yangi usullar, kompozitsiyalar va nota yozuvlarining yaratilishi esa ushbu san’at turining yanada boyib borishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayon milliy musiqa merosini saqlash, rivojlantirish va uni kelajak avlodga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, doira cholg‘usida ijrochilik mahoratini oshirish nafaqat individual ijrochining kasbiy yuksalishini ta’minlaydi, balki xalqimizning boy musiqiy merosini asrab-avaylash va uni yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islomov D. “Maxsus cholg‘u” – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2016-y.
2. Abdurashidov, M. Doira ijrochiligi asoslari. – Toshkent: Musiqa, 2010.
3. To‘xtasinov, R. Milliy cholg‘u ijrochiligi metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
4. Qodirov, S. Ritm va usul nazariyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2012.
5. Karimov, H. Doira usullari va ijro texnikasi. – Toshkent: Musiqa, 2018.
6. Abduvaliyev, D. Doira cholg‘usining zamonaviy ijrochilikdagi o‘rni // San’at va madaniyat jurnali. – 2020. – №3. – B. 45–49.
7. Rahimov, S. O‘zbek xalq cholg‘ularida ritm masalalari // Musiqa ilmi. – 2019. – №2. – B. 30–36.
8. Tursunova, M. Doira ijrochiligida texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish // Pedagogika va san’at. – 2021. – №1. – B. 52–57.